



PROFESSIONAL TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA “ENG YAXSHI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI” RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI TASHKIL ETISH YO'RIQNOMASI



 WWW.RTR.PROFEDU.UZ

 71-246-08-73

 RTR.PROFEDU@GMAIL.COM

RAQAMLI TA'LIM RESURSI NIMA?

Raqamli ta'lim resursi (RTR) – bu aniq bir fanning barcha mavzularini qamrab olgan raqamli ta'lim kontentlari to'plami. RTR – ta'lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir.

Raqamli ta'lim kontenti – bu fanning aniq bir mavzusi bo'yicha o'quv jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan raqamli shaklda taqdim etilgan material bo'lib uning tarkibi ma'ruza matni, media materiallar (audio, video va animatsion materiallar), didaktik ko'rgazmali materiallar (plakatlar), taqdimot materiallari, glossariy (atamalar lug'ati), nazorat dasturlari (mustahkamlovchi savollar, amaliy topshiriqlar va test materiallari), mashq va masalalar to'plami, dars mazmunini to'ldiruvchi materiallardan iborat bo'ladi.



TANLOV BOSQICHLARI VA ULARNI O'TKAZISH TARTIBI

1-BOSQICH: KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI MIQYOSIDA



2-BOSQICH: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHARLARI MIQYOSIDA



3-BOSQICH: RESPUBLIKA MIQYOSIDA



- Har bir bosqichda tanlovni sifatli va yuqori saviyada o'tkazish uchun kamida **5 nafardan** iborat Tashkiliy qo'mita tuziladi.
- Tanlovga taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslarini ko'rib chiqish va baholash uchun har bir bosqichda Tanlov hay'ati tashkil etiladi.
- Har bir bosqichdagi Tanlov hay'ati a'zolarining ro'yxati mos ravishda tegishli Tashkiliy qo'mitalar tomonidan tasdiqlanadi.
- Tanlovning barcha bosqichlarida raqamli ta'lim resurslari **2-ilovada** keltirilgan mezonlar asosida Tanlov hay'ati ekspertlari tomonidan baholanadi.

① **1-bosqichda** raqamli ta'lim resurslari kasbiy ta'lim tashkiloti Tashkiliy qo'mitasiga o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan **3-fevraldan 18-aprelgacha** topshiriladi.

② Raqamli ta'lim resurslari ta'lim muassasasi Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tuzilgan Tanlov hay'ati tomonidan **25-aprelgacha** baholanadi.

③ G'olib deb topilgan ishtirokchilar resurslari va ro'yxati Tashkiliy qo'mita qarori bilan hududiy bosqichga **3 ish kuni** davomida taqdim etiladi.

④ Tanlovning professional ta'lim muassasalari bosqich g'oliblari mos ravishda ta'lim muassasasi tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

① **2-hudud** bosqichiga tegishli kasbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslari hududiy boshqarmalar tomonidan jamlanadi.

② Raqamli ta'lim resurslari hududiy boshqarma Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tuzilgan Tanlov hay'ati tomonidan **25-maygacha** baholanadi

③ Tanlovning **1 va 2-bosqichlari** yakuni bo'yicha g'olib deb topilgan resurslar to'g'risidagi buyurtma mazkur **Tartibning 1-ilovasidagi** shakl asosida to'ldiriladi, Respublika bosqichida ishtirok etish uchun Respublika Tashkiliy qo'mitasiga **3 ish kuni** davomida taqdim etiladi.

④ Tanlovning hududiy bosqich g'oliblari mos ravishda hududiy boshqarmalar tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

① **3-Respublika** bosqichiga taqdim etilgan raqamli ta'lim resurslari 25-iyungacha Tanlov hay'ati tomonidan baholanadi, g'oliblar aniqlanadi hamda Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

② Bitta fandan ikki yoki undan ortiq bir xil mazmun va shakldagi, shuningdek, ko'chirilgan (plagiat) raqamli ta'lim resurslari Tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

③ Bitta fanning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda raqamli ta'lim resursini 2 nafargacha pedagog-xodim hamkorlikda ishlab chiqishiga ruhsat beriladi.

④ Nominatsiyalar bo'yicha Respublika bosqichida g'olib deb topilgan mualliflar Tashkiliy qo'mitasi qarori bilan belgilangan kunda taqdirlanadi.

⑤ Raqamli ta'lim resurslarining ro'yxati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy saytida va uning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e'lon qilinadi.

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA "ENG YAXSHI RAQAMLI TA'LIM RESURLARI"

RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI O'TKAZISH NOMINATSIYALARI

01	Ta'lim		08	San'at		16	Huquq	
02	Jurnalistika va axborot		09	Ijtimoiy ta'minot		17	Xizmat ko'rsatish	
03	Biznes va boshqaruv		10	Gumanitar fanlar		18	Muhandislik ishi	
04	Transport xizmatlari		11	Sog'liqni saqlash		19	O'rmon xo'jaligi	
05	Fizika va tabiiy fanlar		12	Baliq xo'jaligi		20	Arxitektura va qurilish	
06	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari		13	Atrof-muhit		21	Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi	
07	Veterinariya		14	Qishloq xo'jaligi		22	Ishlab chiqarish va ishlov berish	
			15	Xavfsizlik xizmati				

RAQAMLI TA'LIM RESURLARI TARKIBI

Mavzular to'plami

- Mundarija
- Mavzu rejasi
- Savollar to'plami
- Mavzu nomi
- Mavzu bayoni
- Test materiallar

Fanning ta'lim texnologiyalari

- O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi
- O'quv mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi modeli

Media materiallar

- Media (mp4, avi, mkv, flv, mov kengaytmali fayllar holatidagi audio, video va animatsion) materiallar

Vizual-didaktik resurslar

- Vizual-didaktik resurslarga fan dasturida keltirilgan mavzularni ko'rgazmali materiallar bilan boyitishga qaratilgan materiallar va boshqalar.

■ Amalda o'qitilayotgan fan (modul), o'quv amaliyotlarining namunaviy o'quv dasturidagi barcha mavzulari bo'yicha:

01

Taqdimot materiallari

- Taqdimot materiallar (ppt, pptx, pdf, jpg, png va boshqa) ko'rinishlarda.

02

03

Glossariy (atamalar lug'ati)

- Glossariy (kiritilgan barcha atamalar sohaga xos va alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi).

04

05

Baholash vositalari

- Baholash vositalari fanning ta'lim texnologiyasida keltirilgan va har bir mavzu matnida qayd etilgan o'rganish natijalari asosida egallagan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllanganligini aniqlash yuzasidan baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

06

07

RAQAMLI TA'LIM RESURLARI PLATFORMASI | RTR.PROFEDU.UZ

Raqamli ta'lim resurslari

Ta'lim darajalari

Fanlar

Fan mavzulari

Boshlang'ich professional ta'lim

Umumta'lim fanlar
Umumkasbiy fanlar
Maxsus fanlar
O'quv amaliyoti

Ma'ruza matni

Media materillar

Audio materillar

Animasion materillar

Video materillar

O'rta professional ta'lim

Umumkasbiy fanlar
Maxsus fanlar
O'quv amaliyoti

Ko'rgazmali materillar

Plakatlar

Taqdimot materillari

Fotogalereya

Glossariy

Nazorat dasturlari

Mashq va masalalar

To'ldiruvchi materillar

O'rta maxsus professional ta'lim

Tabiiy va gumanitar fanlar
Umumkasbiy fanlar
Mutaxassislik fanlar
O'quv amaliyoti

Video materiallar

Turlari

Video materiallar

Video darslar

"Master klass" darslari

Video yo'riqn timerlar

Kasbga o'rgatuvchi roliklar

Amaliyot darslari


Ochiq darslar

WorldSkills amaliy imtihonlari

Professiogrammalar

Bilim sohalari

Professiogrammalar



RAQAMLI TA'LIM RESURSI

Shaxsiy kompyuter arxitekturasini va texnik xizmat ko'rsatish



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHAXSIY KOMPYUTER ARHITEKTURASI VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- Tizimli platani tanlash
- Protessorlar turlari
- Tezkor xotira qurilmasi turlari
- Qattiq disk qurilmasi va uning xarakteristikasi



Raqamli ta'lim resursi

Mundarija <<

Shaxsiy kompyuter arxitekturasini va texnik xizmat ko'rsatish



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



Bosh sahifa <<

Shaxsiy kompyuter arxitekturasini va texnik xizmat ko'rsatish



SHAXSIY KOMPYUTERNING TEXNIK VOSITALARI

1 MAVZU

- Ma'ruza matn
- Video rolik
- Plakat
- Taqdimotlar
- Test savollari

Bosh sahifa << Mundarija >>

Kompyuterning asosiy qurilmalari




SHAXSIY KOMPYUTERNING TEXNIK VOSITALARI

TIZIMLI BLOK

- Tezkor xotira o'rnatish uchun DVD-RAM qurilmasini o'rnatish uchun joy
- SSD-disk o'rnatish uchun joy
- Qattiq disk
- Elektr tok manbai
- Oniye plati
- Video karta
- Protessorning sovutish tizimi
- Tezkor xotira qurilmasi turlari

175 mm Protessorning sovutish tizimi (uzunligi) 390 mm Video karta uzunligi 2x2.5 2x3.5 SSD/HDD-disk

Shaxsiy kompyuter arxitekturasini va texnik xizmat ko'rsatish




SHAXSIY KOMPYUTERNING TEXNIK VOSITALARI

KOMPYUTER – inglizcha so'z bo'lib, u hisoblovchi demakdir. Garchand u hozirda hisoblovchi bo'lmasada, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. U quyidagi qurilmalardan tashkil topgan: Tizimli blok, monitor, klaviatura, sidhpuncha va tashqi qurilmalar.

Tizimli blok y'ni (desktop) yoki minora (tower) ko'rinishida ishlab chiqariladi. Kompyuterning asosiy qismlari tizimli blokda joylashgan bo'lib, ular quyidagilardir: Tezkor xotira (RAM-Random Access Memory) – ixtyoriy kirish mumkin bo'lgan mikroprotessor. Tezkor xotira qurilmasi registrlardan tashkil topgan. Registr-ma'lumotlarni ikkilik shaklida vaqtinchalik saqlab turish uchun mo'ljallangan qurilma. Registrlar bu yacheykalar deb xam yuritiladi. Bu yacheykalarining har bir barzaxida bir bir ashorot joylashadi ya'ni 0 yoki 1.

Mundarija << 1 2 3 >>

Shaxsiy kompyuter arxitekturasini va texnik xizmat ko'rsatish



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Quyida berilganlaridan qaysilari matn muharriri hisoblanadi?

- ☐ Windows, Lexicon;
- ☐ Word, Paint;
- ☐ Word, Lexicon;
- ☐ Windows, Norton.

Hammalasini jo'natish

Oldingi Keyingi

KO'RIK-TANLOV MATERIALLARINI BAHOLASH MEZONLARI

T/r	RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI BAHOLASHNING UMUMIY MEZONLARI	Maksimal ball
Nominatsiya bo'yicha soha eksperti		
1.	Raqamli ta'lim resursida amaldagi fan dasturi mavzularining mosligi	5
2.	Amaldagi fan dasturi mavzularining to'liq yoritilganligi: <ul style="list-style-type: none">100% yoritilgan bo'lsa – 20 ball;96-99% oralig'ida yoritilgan bo'lsa – 15-19 ball;90-95% oralig'ida yoritilgan bo'lsa – 10-14 ball;89% gacha yoritilgan bo'lsa – ball berilmaydi.	20
3.	Fan (modul) yoki o'quv amaliyoti mavzularining dasturdagi nazariy va amaliy mashg'ulotlariga mos yoritilganligi: <ul style="list-style-type: none">100% mos kelsa – 10 ball;90-99% mos kelsa – 9 ball;80-89% mos kelsa – 8 ball;79% gacha yoritilgan bo'lsa – ball berilmaydi.	10
4.	Imlo qoidalariga rioya qilinganligi: <ul style="list-style-type: none">100% amal qilingan bo'lsa – 10 ball;10 tadan ortiq xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – ball berilmaydi.	10
5.	Nazorat savollari (amaliy topshiriqlar, test materiallari, mashqlar, masalalar to'plami va boshqalar) mavzular xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi: <ul style="list-style-type: none">100% mos kelsa – 10 ball;80-99% mos kelsa – 7-9 ball;60-79% mos kelsa – 1-6 ball;59% gacha bo'lsa – ball berilmaydi.	10
6.	Glossariyning sifatliigi (resursga kiritilgan barcha atamalar sohaga xos bo'lsa va alifbo ketma-ketligida shakllantirilganligi) bo'yicha talablarning bajarilganligi: <ul style="list-style-type: none">100% bajarilgan bo'lsa – 5 ball;80-99% bajarilgan bo'lsa – 4 ball;60-79% bajarilgan bo'lsa – 3 ball;alifbo ketma-ketligida shakllantirilmagan bo'lsa - 1 ball.	5
7.	Fan mavzulari bo'yicha ta'lim texnologiyalarining mavjudligi	5

KO'RIK-TANLOV MATERIALLARINI BAHOLASH MEZONLARI

T/r	RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI BAHOLASHNING UMUMIY MEZONLARI	Maksimal ball
AKT soha eksperti		
8.	Ma'ruza matnida Calibri shrifti, o'lchovi 14, satrlararo interval – “одинарный” ga rioya qilinganligi: <ul style="list-style-type: none"> 100% rioya qilingan bo'lsa – 5 ball; 80-99% rioya qilingan bo'lsa – 4 ball; 60-79% rioya qilingan bo'lsa – 3 ball; 59% gacha rioya qilingan bo'lsa – ball berilmaydi. 	5
9.	Video materiallarning fan mavzulariga mosligi: <ul style="list-style-type: none"> 100% mos kelsa – 5 ball; 80-99% mos kelsa – 4 ball; 60-79% mos kelsa – 3 ball; 59% gacha mos kelsa – ball berilmaydi. 	5
10.	Videomateriallarning sifati (mp4, avi, mkv, flv, mov kengaytmali fayllar holatidagi audio, video va animatsion materiallar) kamida: <ul style="list-style-type: none"> 480p (SD: 854x480) bo'lsa – 10 ball; 360p (SD: 640 x 360) bo'lsa – 8 ball; 240p (SD: 426 x 240) bo'lsa – 6 ball; videomateriallarning sifati aralash keltirilgan bo'lsa, ballar ularning nisbatiga qarab mos ravishda belgilanadi. 	10
11.	Didaktik-ko'rgazmali va taqdimot materiallar (ppt, pptx, pdf, jpg, png va boshqa ko'rinishlarda) ning mavzularga mosligi va sifati: <ul style="list-style-type: none"> Sifati yaxshi, fan mavzulariga 100% mos kelsa – 10 ball; Sifati yaxshi, fan mavzulariga 80-99% mos kelsa – 9 ball; Sifati yaxshi, fan mavzulariga 60-79% mos kelsa – 8 ball; Fan mavzulariga 59% va undan kam bo'lsa – ball berilmaydi. 	10
12.	Raqamli ta'lim resursini baholashda uning interfeysi (dasturdan foydalanish qulayligi va interaktivlik) foydalanish uchun qulay va dizayni bejirim tayyorlanganligi, mundarija va har bir mavzu bo'yicha resurslarning to'liq shakllantirilganligi hamda ergonometrik talablar (materiallarda rang, shrift, monitor ekrani o'lchamiga mosligi va boshqalar)ning ta'minlanganligi.	5
13.	Bitta fandan ikki yoki undan ortiq bir xil mazmun va shakldagi, shuningdek, ko'chirilgan (plagiat) raqamli ta'lim resurslari.	Tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi
Jami:		100

TANLOV G'OLIBLARINI TAQDIRLASH

- Tanlovning professional ta'lim muassasalari va hududiy bosqich g'oliblari mos ravishda ta'lim muassasasi, hududiy boshqarmalar tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.
- Respublika ko'rik-tanlovining natijalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Professional ta'limni rivojlantirish institutining rasmiy saytlari va ularning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e'lon qilinadi.
- Sohalar bo'yicha tanlovning Respublika bosqichida qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallamagan keyingi **3 ta** o'rindagi ishtirokchilar vazirlikning "Faxriy yorliq"lari bilan taqdirlanadi.
- Tanlovning respublika bosqichida g'olib deb topilgan mualliflarning raqamli ta'lim resurslari ommalashtirish uchun Professional ta'limni rivojlantirish institutining <http://rtr.profedu.uz> Raqamli ta'lim resurslari platformasiga joylashtiriladi.

**Tanlovning Respublika
bosqichi g'oliblari
nominatsiyalar bo'yicha
tegishli darajadagi diplom,
shuningdek:**



20 - baravar



15 - baravar



10 - baravar

bazaviy hisoblash miqdorining pul mukofoti bilan taqdirlanadi.





PROFESSIONAL TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA “ENG YAXSHI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI” RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI



WWW.RTR.PROFEDU.UZ



71-246-08-73



RTR.PROFEDU@GMAIL.COM